XALQ DEPUTATLARI NAVOIY VILOYATI
NAVBAHOR TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr VI-39-87-5-73-K/21 Navbahor tuman hokimiligi

Tuman mahalliy byudjetining

2021-yildagi ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning rahnamoligida mamlakatimizda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.

Tuman mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi O‘zbekiston Respublikasining “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Navbahor tuman Kengashining 2019-yil 16-dekabrdagi 59/379-sonli qarorida belgilangan ko‘rsatkichlar doirasida bajarilishi ta’minlanadi.

Joriy yilda mahalliy byudjetning daromadlar rejasi 29,5 mlrd. so‘m belgilangan bo‘lib, haqiqatda 34,7 mlrd. so‘m yoki 117,4 foizga bajarilib, byudjetga qo‘shimcha ravishda 5,1 mlrd. so‘m mablag‘ tushirilishi ta’minlanadi.

Mahalliy hokimlik organlarini moliyaviy mustaqilligini oshirishni ta’minlash maqsadida 2021-yilda mahalliy byudjetlarning oshirib bajarilgan qismi hisobidan 4,9 mlrd. so‘m tuman byudjeti ixtiyorida qoldirildi.

Tuman mahalliy byudjetining xarajatlari 2021-yilda 130,9 mlrd. so‘mga ijro etilishi ta’minlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasi asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman mahalliy byudjetining 2021-yildagi ijrosi yuzasidantuman moliya bo‘limi mudiri M.Jumaboyevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2021-yilda mahalliy byudjetning daromadlari 34,7 mlrd. so‘mga va xarajatlari 130,9 mlrd. so‘mga ijro etilishi kutilayotganligi;

tuman mahalliy byudjetining 2021-yil davomida tuman mahalliy byudjetining yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘lari hamda daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan jami 4,9 mlrd. so‘m, shundan:

xalq ta’limi sohasiga 395.1 mln. so‘m, maktabgacha ta’lim sohasiga

47,0 mln. so‘m, sog‘liqni saqlash sohasiga 174,5 mln. so‘m, madaniyat sohasiga 67,0 mln.so‘m va obodonlashtirish sohasiga 111,5 mln. so‘m, boshqaruv organlari va o‘zini o‘zi boshqarish organlari sohasiga 1464,9 mln. so‘m, tumanda tashkil etilgan yoshlar va ayollar jamg‘armasiga 1451,7 mln so‘m, “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga 1242,7 mln.so‘m;

3. Viloyat hokimiligi moliya bosh boshqarmasining 2021-yil 30-dekabrdagi xati orqali viloyatning 2021-yil tasdiqlangan mahalliy byudjet parametrlarining belgilangan daromadlari va xarajatlarini (balanslashgan holda) Byudjet kodeksining 127-moddasiga asosan tegishli ravishda oshirish bo‘yicha murojaatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 30-dekabrdagi 01/20-01-32/838-sonli xatini inobatga olib, Tuman mahalliy byudjetining daromadlar va xarajatlar rejasi 130,9 mlrd. so‘mga oshirilsin.

4. Tuman moliya bo‘limi mudiri (M.Jumaboyev) tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining oshirilgan qismi hisobidan Moliya vazirligidan olingan byudjet ssudasini qoplash hamda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga va kechiktirib bo‘lmaydigan tadbirlarga viloyat hokimining farmoyishi asosida yo‘naltirsin.

5. 2021-yil tuman mahalliy byudjetining xarajatlar qismi 1-ilovaga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining aniqlangan daromadlar qismi 2-ilovaga muvofiq, umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 3-ilovaga muvofiq amalga oshirilganligi ma’qullansin.

6. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (F.Ergashov) va tuman moliya bo‘limi mudiri (M.Jumaboyev) tuman hokimgi bilan tuman mahalliy byudjetining 2021-yilgi daromadlarining belgilangan rejasi daromad turlari bo‘yicha ijrosini hamda Hukumat tomonidan belgilangan qo‘shimcha daromadlar manbasini aniqlab, mahalliy byudjetga tushumini ta’minlasin.

7. Tuman sektor rahbarlari tuman byudjetining 29,5 mlrd. so‘m belgilangan 2021-yillik daromadlar rejasi bo‘yicha to‘liq ijrosini ta’minlashni nazoratga olsinlar.

8. Tuman moliya bo‘limiga belgilangan tartibda 2021-yil davomida viloyat Moliya bosh boshqarmasining bildirishnomasi va tuman moliya bo‘limining xulosalariga asosan mahalliy byudjetning daromad va xarajat qismiga o‘zgartirishlar kiritilishiga ruxsat berilsin.

9. Byudjet tashkilot va muassasalari hamda byudjetdan mablag‘ oluvchilar ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta’minlasinlar.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (L.Xayrullayev) va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Z.Qudratov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Л.Облақулов**